

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

DAVLATOV SANJAR ABDIMANNOVICH

**BIZNES MUHITINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARALI BOSHQARISHNI
TASHKIL ETISH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on economic sciences**

Davlatov Sanjar Abdumannovich

Biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarishni tashkil etish (Qashqadaryo viloyati misolida)	3
---	---

Давлатов Санжар Абдиманнонович

Развитие деловой среды и организация эффективного управления (на примере Каракалпакской области).....	27
---	----

Davlatov Sanjar Abdumannovich

Development of the business environment and organization of effective management (on the example of the Kashkadarya region)	51
---	----

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....	57
------------------------------	----

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

DAVLATOV SANJAR ABDIMANNOVICH

**BIZNES MUHITINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARALI BOSHQARISHNI
TASHKIL ETISH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.2.PhD/Iqt4231 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tdiu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriladi.

Ilmiy rahbar:

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ikramov Murat Akramovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xasanov Toxir Abdurashidovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi
DSc.03/30.12.2020.1.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 7.10 kuni soat 14:00-da
majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. tel.: (+99871) 239-
01-49; faks: (+99871) 239-41-23, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish
mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi,
49. tel.: (+99871) 239-01-49; faks: (+99871) 239-41-23, e-mail: tdiu@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 19.09 kuni tarqatildi.

(2025-yil 19.09 dagi 47 raqamli reyestr bayonnomasi).



G.Q. Abduraxmonova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, i.f.d., dotsent

Sh.J. Ergashxodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi v.v.b., i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon iqtisodiyoti sharoitida hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish milliy iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, tadbirkorlik faolligini oshirish va investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biznes muhitini yaxshilash orqali kichik va o'rta biznes subyektlarining huquqiy, moliyaviy va infratuzilmaviy imkoniyatlarini kengaytirish, xo'jalik yuritish sharoitlarini soddalashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish mumkin bo'ladi. Rivojlangan va izchil taraqqiy etayotgan davlatlar (Yaponiya, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Xitoy va boshqalar) tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakat raqobatdoshligi, o'zining chegarasi doirasida umumiy infratuzilmani qo'llab-quvvatlash, integratsiyani chuqurlashtirishning yangi metodlarini qo'llash asosida biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarishga to'laligicha bog'liqdir. Bu esa hududlar o'rtasidagi iqtisodiy disproporsiyani kamaytirish, yangi ish o'rinalarini yaratish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilib, global iqtisodiy tizimda barqaror va inklyuziv o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro amaliyotda Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, BMTning Taraqqiyot dasturi tomonidan biznesni rivojlantirish natijalarini baholash, samarali investitsiya qarorlarini qabul qilish, investorlar uchun qulay biznes muhit yaratishga oid, shuningdek, biznes muhitini rivojlantirishning iqtisodiy-huquqiy maqomini oshirish va ularni samarali boshqarish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Biznes muhitini yaxshilash va samarali boshqarish orqali hududlarni rivojlantirish, hududlararo tabaqalanish va tavofutlarning salbiy ta'sirlarini kamaytirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni samarali joylashtirish, investitsiya oqimlarini tartibga solish, innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish, ilmiy-texnik ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, hududlar biznes muhitini rivojlantirish va boshqarishning samarali usullarini joriy etish bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish biznes jozibadorligini yaxshilash bilan birga tadbirkorlar manfaatdorligini ham oshirmoqda. Xususan, BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) tomonidan har yili e'lon qilinadigan "Raqobatbardosh sanoat unumdarligi" indeksining 2023-yilgi hisobotida mamlakatimiz ham aks ettirilib, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o'rinni egallagani qayd etildi. Hozirda "Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish, natijada iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish, davlat ulushi mavjud 2,3 mingta korxonalar sonini 6 barobarga kamaytirish maqsadida hududlarda biznesni rivojlantirish" muhim vazifa sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifani samarali amalga oshirish biznes faoliyati natijadorligini yuksaltirish, ushbu faoliyatning tahlil mexanizmlarini takomillashtirish, uning hududda iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashdagi o'rnini kuchaytirish hamda uni boshqarish samaradorligi darajasini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PF–193-son “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 8-apreldagi PF–101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”, 2019-yil 14-maydaggi PF–5717-son “O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur sohaga oid tegishli bo‘lgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarishning umumiqtisodiy muammolari, hududlardagi biznes raqobatbardoshligi masalalari yuzasidan Michael Porter¹, Isabell M.A. de Lemos, Paul Krugman², D.A.McKee, Peter Hall, David A. Audretsch, Enrico G. M. Deidda-Giugno, William S. Comanor, Alfredo De Massis, J.F.Mahoneylar³ tadqiqotlar olib borishgan.

MDH davlatlarida S.E.Pyatovsky, N.S.Efimova, E.V.Surkova⁴, Mikhail Kaluzhsky⁵ hududiy iqtisodiyot va biznes muhitining samarali boshqaruvi, hududlar iqtisodiyoti, ularning rivojlanish strategiyalari va resurslardan samarali foydalanish, hududiy boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan muammolari bo‘yicha ilmiy ishlar olib borganlar.

O‘zbekistonlik olimlaridan S.S.G‘ulomov, Sh.A.Allayarov, U.V.G‘ofurov, M.P.Boltabayev, M.S.Qosimova, B.K.G‘oyibnazarov Sh.J.Ergashxodjayeva, A.N.Samadov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida tadbirkorlik, hududlarda biznesni boshqarishning turli yo‘nalishidagi muammolari yoritilgan. Mamlakatimizda hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari investitsiya muhitini yaxshilash, investitsiyadan samarali foydalanish usullari va ularni takomillashtirish yo‘nalishlarini S.S.G‘ulomov, B.Yu.Xodiyev, Sh.Shodiyev, B.B.Berkinov, A.N.Kravchenko, Yo.Abdullayev, R.X.Alimov, B.T.Salimov, N.M.Mahmudov, D.M.Rasulev kabi olimlarning ishlarida ko‘rish mumkin.

¹ Michael E. Porter - “The Competitive Advantage of Nations” 855 bet, Free Press, 1990-y.

² Paul Krugman - “Geography and Trade”, 156 bet, MIT Press, 1991-y.

³ Daria Tataj. Innovation and Entrepreneurship: A Growth Model for Europe Beyond the Crisis Kindle Edition, September 29, 2015. 398 p. Peter Hall. Cities in Civilization Hall. 1998. New York: Pantheon. J.F.Mahoney, "The Competitive Advantage of Firms: A Resource-based View" Strategic Management Journal 1997. Alfredo De Massis. "Innovation and Entrepreneurship in Family Firms: The Role of Organizational Culture" Springer Edition 2014 y.

⁴ Management of high-tech companies in conditions of import substitution. 2024 y. E-mail: vgsep@ya.ru

⁵ “Rossiya Federatsiyasida raqamli savdoning institutlashtirilishi: hisoblash” (2023).

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiytadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №2-021-I-sonli “Innovatsion iqtisodiyot sharoitida agrobiznesning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, menejmenti va investitsiya faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy hamda amaliy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo‘nalishlarini tadqiq etish asosida ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hududlar biznes muhitini rivojlantirish zarurligi va iqtisodiy-huquqiy maqomini o‘rganish;

hududlar biznes muhitini rivojlantirish va boshqarishning zamonaviy tendensiyalarini ochib berish;

- o Qashqadaryo viloyati biznes muhitini rivojlantirish va boshqarishda kichik sanoat zonalarining hozirgi holatini tahlil qilish;
- d investitsiyalarning hududlar biznes muhitini rivojlantirishga ta’sirini baholashning ekonometrik modelini ishlab chiqish;
- a hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish tamoyillari hamda mezonlarini ilmiy asoslash;
- a hududlar biznes muhitini samarali boshqarishning konseptual asoslarini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash;
- j hududlar biznes muhitini rivojlantirishda ishtirokchilar raqobatbardoshligini oshirish jarayonini strategik modellashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati hududida tashkil etilgan korxonalar faoliyatini boshqarish jarayonlari tanlab olingan.

g **Tadqiqotning predmeti** bo‘lib korxonalar faoliyatini samarali boshqarish jarayoni bilan bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

n **Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil va umumlashtirish, korrelyatsion va regression tahlil, prognozlash,

s

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hududlarning qisqa (1 yilgacha), o‘rta (1 yildan 5 yilgacha) va uzoq (5 yildan 10 yilgacha) davrdagi investitsiya loyihamalarini baholashning “hududlar foydalilik indeksi”ni ishlab chiqish orqali biznes faoliyati uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan imkoniyatlar bo‘yicha “yashil biznes” ustunlik mavqeini qo‘llash taklifi asoslangan;

hududlar biznes va iqtisodiy mavqeini yaxshilashning “tovar-bozor-hudubiznes” zanjirida risklarni boshqarish uslubini ishlab chiqish asosida hudud biznes faoliyatiga jalb qilinayotgan investitsiyalar samaradorligini oshirishning ($25\% \leq IS \leq 30\%$) miqdoriy chegarasi asoslangan; ma’muriy usullardan foydalanildi.

g

hududlar biznes muhitini rivojlantirish bo'yicha hududning biznes salohiyati darajasini aniqlash uslubini ishlab chiqish asosida Qashqadaryo viloyati hududlarining biznes salohiyatining yuqori ($A=10$ ball), o'rta ($B=6$ ball) va past ($C=2$ ball) qiymatlari aniqlangan;

Qashqadaryo viloyati bo'yicha investitsiyalarning biznes salohiyatiga ta'sirining ko'p omilli korrelyatsion modellari asosida hudud biznes muhitini rivojlanishing 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalarini quyidagilardan iborat:

hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarishda mavjud bo'lган muammolar hamda qiyinchiliklar aniqlangan;

hududlarning qisqa, o'rta va uzoq davrdagi investitsiya loyihamonining "yashil biznes" ustunlik mavqeini qo'llash orqali biznes faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi takomillashtirilgan;

hududlar biznes va iqtisodiy mavqeini yaxshilashning risklarni boshqarish uslubiyoti ishlab chiqilgan, natijada hudud biznes faoliyatiga jalb qilinayotgan investitsiyalar samaradorligini yanada oshirishga erishilgan;

hududlar biznes muhitini rivojlantirish bo'yicha biznesni boshqarishning "maxsus model"i va "strategik konsepsiya"si ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ekonometrik va matematik usullarning asoslanganligi, statistik ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Qashqadaryo viloyati hokimligi ma'lumotlariga hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi va tegishli xulosa, taklif va tavsiyalarning yuqori tashkilotlar tomonidan amaliyatga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izlanishlar davomida olingan va ilgari surilgan nazariy yondashuvlar, ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalardan hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarishda, biznes muhitni yaxshilashga qaratilgan investitsion loyihamonini, maqsadli rivojlantirish dasturlari va ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishda keng foydalanish mumkinligi, amaliyatga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

hududlarning qisqa (1 yilgacha), o'rta (1 yildan 5 yilgacha) va uzoq (5 yildan 10 yilgacha) davrdagi investitsiya loyihamonini baholashning "hududlar foydalilik indeksi"ni ishlab chiqish orqali biznes faoliyatini uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan imkoniyatlar bo'yicha "yashil biznes" ustunlik mavqeini qo'llash taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasida foydalilanigan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 22-apreldagi 04-07-27-4368-sodan ma'lumotnomasi). Mazkur taklif Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan yashil biznes vakillari haqida umumiy ma'lumotlar bazasining shakllanishiga,

ulardan keng foydalana olish imkoniyatining yaratilishi orqali 2024-yilning 1-yarmida investitsiyalar jozibadorligining 13,5 foizga o'sishini ta'minlagan;

hududlar biznes va iqtisodiy mavqeini yaxshilashning “tovar-bozor-hudubiznes” zanjirida risklarni boshqarish uslubini ishlab chiqish asosida hudud biznes faoliyatiga jalb qilinayotgan investitsiyalar samaradorligini oshirishning ($25\% \leq IS \leq 30\%$) miqdoriy chegarasiga oid taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 22-apreldagi 04-07-27-4368-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif amaliyatga joriy etilishi natijasida potensial va istiqbolli investorlar o'rtasida sog'lom raqobatning o'sishiga erishilgan hamda potensial va istiqbolli investorlarning raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari 14 foizga yaxshilanishi asosida ularning yangi ish o'rirlari yaratishdagi ishtiroki 7,6 foizga, o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ishtiroki 12,4 foizga oshgan;

hududlar biznes muhitini rivojlantirish bo'yicha hududning biznes salohiyati darajasini aniqlash uslubini ishlab chiqish asosida Qashqadaryo viloyati hududlarining biznes salohiyatining yuqori ($A=10$ ball), o'rta ($B=6$ ball) va past ($C=2$ ball) qiymatlarini aniqlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 22-apreldagi 04-07-27-4368-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifdagi viloyatga jalb qilinayotgan investitsiyalar samaradorligini oshirish, viloyatda infratuzilmani rivojlantirish, biznes vakillari raqobatbardoshligini oshirish, viloyatda biznes muhitini yaxshilash orqali biznesdagি risklarni kamaytirish hamda hududlarda ish o'rirlarini yaratish va ishsizlikni kamaytirish yo'naliishlari bo'yicha uslubiy tavsiyalarni amaliyatda qo'llash biznes muhitini yaxshilashga, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish joylarini tashkil qilishda asos bo'lib xizmat qilgan hamda Qashqadaryo viloyatiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmini 2024-yilning 1-yarmida 7,8 foizga oshishini ta'minlagan;

Qashqadaryo viloyati bo'yicha investitsiyalarning biznes salohiyatiga ta'sirining ko'p omilli korrelyatsion modellari asosida hudud biznes muhitini rivojlanishining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 22-apreldagi 04-07-27-4368-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifda turli omillarning o'zaro aloqadorligini tadqiq etishning yangi konseptual sxemasi asosida biznes muhitini samarali boshqarishning uzoq muddatli vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlari tizimi Qashqadaryo viloyati hududlar biznes taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz parametrlarini ishlab chiqish imkonini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning ilmiy-amaliy natijalari 4 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy

nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'naliшlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari aks ettirilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Biznes muhitini rivojlantirish va boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlanib, unda hududlar biznes muhitini rivojlantirish: zarurligi va iqtisodiy-huquqiy maqomi, hududlar biznes m

u

h Hududning biznes muhiti – bunda ma'lum bir hududdagi biznes faoliyati va inuvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi umumiy shart-sharoitlar va omillar tushuniladi. Hududdagi biznes muhitini tushunish tadbirkorlar, investorlar, iqtisodchilar va tegishli soha vakillari uchun juda muhim, chunki bu biznesning raqobatbardoshligi ma barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi.

i Hududlar biznes muhitini yaxshilshda tadbirkorlar va ularga yaratilgan qulayliklar muhim hisoblanadi. Sababi tadbirkor qancha qo'llab-quvvatlansa, barcha hududlarda iqtisodiyot rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida quyidagi natijalarni beradi:

- v birinchidan, bozorlarimizda mahsulotlar to'kinligi va arzonligi ta'minlanadi;
- o ikkinchidan, aholiga sifatli milliy tovarlar yetkazib beriladi;
- j uchinchidan, oziq-ovqat xavfsizligiga erishiladi;
- l to'rtinchidan, aholi bandligi ta'minlanadi;
- a beshinchidan, kambag'allik darajasi kamayadi, aholining farovonligi oshadi;
- n oltinchidan, milliy iqtisodiyot yuksaladi.

t Respublikamizda biznesni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning faoliyatini huquqiy kafolatiga, chet el investorlarining erkin faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan zarur huquqiy asoslar yaratilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, shu qatori chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun soliq, bojxona va boshqa sohalarda bir qator qulayliklar va afzalliklar berilmoqda. Shu bilan birga yaratilgan biznes muhitini o'rganish yuzasidan tegishli institutlar tashkil qilingan. Jumladan, Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi, Eksportni rag'batlantirish agentligi, Mahalla va tadbirkorlik agentligi va boshqa ko'plab institutlar.


b0

o

s

h

Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida indikatorlar tizimi ishlab chiqildi. "BUSINESS INDICATOR" hududlarda tadbirkorlikning rivojlanganlik darjasini ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash bo'yicha avtomatlashtirilgan onlayn axborot tizimi (1-rasm).



1-rasm. "BUSINESS INDICATOR" orqali hududlarda biznes, tadbirkorlikning rivojlanganlik darjasini va umumiyoq o'rtacha ballar⁶

Biznes muhitini baholash mezonlari to'g'ridan-to'g'ri Hukumat qarorida ko'rsatilgan bo'lib, Savdo-sanoat palatasi, Biznes ombudsman, Mahalla va tadbirkorlik agentligi, Soliq qo'mitasi va boshqa tashkilotlar bilan kelishilgan holda olib boriladi.

Hududlarni rivojlantirish va biznes muhiti jozibadorligini oshirishda investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi omil bo'lib, barcha imkoniyatlardan oqilona foydalaniib iqtisodiyotga jalb etiladigan investitsiyalar samaradorligini oshirish talab etiladi (1-jadval).

1-jadval Hududlar biznes muhiti jozibadorligi oshishiga ta'sir etuvchi omillar⁷

Omillar	Mazmuni
---------	---------

⁶ Respublika hududlarida tadbirkorlikning rivojlanganlik darjasini baholash tartibi to'g'risida Nizom asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁷ Tadqiqotlar davomida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Iqtisodiy holat	Mamlakat to‘lov balansining holati, valyuta pul tizimi barqarorligi, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanganligi, ichki bozor sig‘imining kattaligi, inflyatsiya darajasi, YAIM, sanoat va qurilish xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari
Huquqiy baza	Yangi sharoitlarga mos keladigan, mamlakat va uning alohida tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining boshqaradigan farmonlar, qarorlar, nizomlar, yo‘riqnomalarning mavjudligi
Tabiiy xomashyo resurslari	Mineral, xomashyo, yoqilg‘i energetika va suv resurslari zaxiralari, qishloq xo‘jaligi xomashyosi ishlab chiqarish hajmlari
Mehnat resurslari va bandlik	Iqtisodiy faol aholi soni, band aholi ulushi, ishsizlik darajasi xizmatchilar daromadi darajasi, kadrlarning malaka darajasi
Ishlab chiqarishning texnik bazasi	Asosiy ishlab chiqarish fondlarining, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, uskunalarining foydalanish muddati tarkibi, asosiy fondlarning eskirishi darajasi
Ilmiy-texnik salohiyati	Iqtisodiy riovjlanishga qaratilgan investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmlari. Investitsiya tavakkalchilik darajasi. Ishlab chiqarishning texnik jihozlanishi, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish va ITTKI sohasining rivojlanishi holati, mahsulotning fan sig‘imkorligi katta va yuqori texnologik turlarini ishlab chiqarish
Moliya-kredit tizimi	Soliq va kredit siyosati, iqtisodiyotning real sektori korxonalarning foydalilik va rentabellik darajasi. Narx siyosati va narxni shakllantirish siyosati
Infratuzilma	Bank tizimining rivojlanish holati, transport, kommunikatsiya xizmatlari va mehmonxona xo‘jaligi sohalari, tovar va fond birjalari, marketing, konsalting, auditorlik xizmatlari, sug‘urta sohasi tarmog‘ining ishonchliligi
Ekologik vaziyat	Atrof-muhitning ifloslanishi darajasi, radiatsion fon, zararli chiqindilar

Mamlakatimizda olib borilayotgan biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan siyosatining asosiy maqsadi xo‘jalik subyektlarining manfaatdorligini oshirish, moliyalashtirish manbalari tuzilmasini takomillashtirish, biznes yurituvchilarga yanada qulayliklar yaratish va xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda qo‘shma korxonalar tashkil etish asosida mamlakatimiz biznes muhitini yaxshilashdan iborat. Bu siyosat birinchi navbatda, biznes yuritish jarayonlarini yanada tartibga solish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakillantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar mahalliy va xorijiy investorlarning xo‘jalik faoliyatini yuritishlari uchun qulay sharoitlar yaratmoqda.

Bugungi kunda hududlarda biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish maqsadida dunyoning 150 dan ortiq davlatida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar mamlakatlar taraqqiyoti uchun xizmat qilib kelmoqda. Bu jarayon, albatta, O‘zbekiston uchun rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasini

o‘rganishni talab qiladi. Hamma davlatlarda ham bu sohadagi ishlar ilmiy asosda, puxta o‘ylangan siyosat orqali tashkil etilgan, deb bo‘lmaydi. Biz bu borada katta tajribaga ega bo‘lgan ayrim davlatlardi biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarishga oid olib borilgan ishlarni tahlil qilmoqchimiz. Bu borada katta tajribaga ega davlatlar anchagina, ammo qaysi davlatning tajribasiga e’tiborni qaratishda ikki narsani hisobga oldik: birinchidan, hududlarda biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish borasida o‘ziga xos o‘rnii bor va ikkinchidan, tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash uchun ahamiyati muhimroq davlatlar tanlandi.


Shu boisdan, tadqiqotimiz mazkur paragrafida ma’lum ketma-ketlikka rioya qilishni lozim topdik: dastlab hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarishga oid Xitoy tajribasi yoritildi, keyinchalik AQSh va Singapur tajribasi o‘rganildi. Xorij tajribasidan ma’lumki, hududlar biznes muhitini muvaffaqiyatli yaxshilashda ko‘pincha infratuzilmani, jumladan, transport, aloqa va energetika tizimlarini rivojlantirishga katta mablag‘ sarflaydi. Samarali infratuzilma biznesning rivojlanishi uchun juda muhim va xorij tajribasidan olingan saboqlar O‘zbekiston Respublikasi sharoitida iqtisodiy faoliyatni osonlashtiradigan strategik infratuzilma loyihibariga ustuvor ahamiyat berish va amalga oshirishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi asoslab berildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Biznes muhitini rivojlantirish va boshqarishning hozirgi holati”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda hududlar biznes n

samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari, Qashqadaryo viloyati biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarishda kichik sanoat zonalarining hozirgi holati, investitsiyalarning hududlar biznes muhitini rivojlantirishga ta’sirini baholashda ~~hinduglak dionestrikuhitidelirikatiamisallakaradorthiqilganchaholashdobiyaqamida tashqiqotayushchylan almosiyaxnosalidahakjastalgartgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Mintaqaviy ishbilarmonlik muhiti qanchalik yaxshi ishlashini baholash uchun foydalanimishi mumkin bo‘lgan vositalar, metodologiyalar va ma’lumotlar manbalariga e’tibor qaratib, ushbu asoslarni o‘rganish kerak bo‘ladi. Ushbu baholash biznes muhitining kuchli va zaif tomonlarini tushunishga, ma’sul va mutaxassislarni xabardor qilishga va yaxshilash uchun yo‘nalishlarni taklif qilishga qaratilgan.~~

Hududlar biznes muhitini rivojlantirish samaradorligini baholashda xalqaro ko‘rsatkichlarni ham o‘rganish muhim hisoblanadi. Jahon bankining “Biznes yuritish” hisoboti kabi xalqaro indekslarni ko‘rib chiqish, unda turli mamlakatlarda biznes qoidalari va ularning bajarilishini baholaydi. Bu mintaqalarga global miqyosda raqobatbardoshligini baholash imkonini beradi. Jahon bankining “Biznes yuritish 2023” yillik hisobotida O‘zbekiston birozgina yuqoriga ko‘tarilib, ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda eng yuqori ko‘rsatkichga erishgan 20 mamlakat qatoriga kirdi.

Jahon bankining “Biznes yuritish” hisobotida mamlakatda biznes yuritish qulayligini baholovchi quyidagi ko‘rsatkichlar tahlil qilingan va shu ko‘rsatkichlar orqali baholab kelinmoqda (2-rasm).



2-rasm. “Biznes yuritish” qulayligini baholovchi ko’rsatkichlar⁸

Hududlar biznes muhitini rivojlanish samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari – bu hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini, biznes faoliyatining samaradorligini baholash uchun ishlataladigan metodlar, tamoyillar va yondashuvlar majmui. Ushbu baholashning ilmiy-uslubiy asoslari, birinchi navbatda, hududdagi iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy shart-sharoitlarni chuqur tahlil qilishni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Tadqiqot davomida, hududlar biznes muhitini rivojlantirish bo'yicha hududning biznes salohiyati darajasini aniqlash uslubini ishlab chiqish asosida Qashqadaryo viloyati hududlarining biznes salohiyatining yuqori ($A=10$ ball), o'rta ($B=6$ ball) va past ($C=2$ ball) qiymatlari aniqlangan.


Respublikamizda Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri, Shahrисabz shahri va yana 14 ta tumandan iborat yirik sanoatlashgan viloyat hisoblanadi. Shu boisdan, Qashqadaryo viloyati hududlarini biznes salohiyati rivojlanganligi jihatdan uchta guruhga ajratib oldik. Qashqadaryo viloyati hududlarining biznes salohiyati jihatdan yuqori (Qarshi shahri, Shahrисabz shahri, Qarshi, Koson, Kitob va Yakkabog' tumanlari), o'rta (G'uzor, Qamashi, Mirishkor, Nishon, Chiroqchi tumanlari) va past (Dehqonobod, Muborak, Ko'kdala, Kasbi va Shahrисabz tumanlari) qiymatlari taklif etildi.

Biz tadqiqotimiz davomida hududlar biznes muhitini rivojlantirish bo'yicha hududning biznes salohiyati darajasini aniqlash uslubini ishlab chiqishni muhim hisobladik va shu orqali Qashqadaryo viloyati hududlari biznes salohiyatining turli

⁸ Adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

qiymatlarini aniqlashga erishildi. Avvalambor, hududlar biznes muhitini rivojlantirish tushunchasiga to‘xtalsak. Hududlar biznes muhitini rivojlantirish – bu iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash va investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan kompleks jarayondir. Bunda hududning o‘ziga xos xususiyatlari, resurslari, tadbirkorlik subyektlari, kiritilgan investitsiyalar hajmi va ehtiyojlari inobatga olinadi.

Qashqadaryo viloyatida 2014-yilda 1652 ta yangi kichik biznes va xususiy korxonalar tashkil etilgan bo‘lsa, 2025-yil 1-yanvar holatida 4484 ta korxonalar tashkil qilingan. 2014–2024-yillar kesimida eng yuqori ko‘rsatkich 2022-yilda sodir bo‘lgan, 2022-yilda 9463 ta korxona tashkil qilingan (3-rasm).



3-rasm. Qashqadaryo viloyatida 2014–2025-yil 01.01.2025 yil holatida yangi tashkil etilgan korxonalar⁹

Tadqiqotdning asosiy maqsadlaridan biri bu biznes barqarorligini hamda unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, negaki 2023-yildan keyingi holatda yangi tashkil etilayotgan korxonalar kamayish tendensiyasiga ega (2.3-rasm).

Hududlar biznes muhitini rivojlantirish bo‘yicha hududning biznes salohiyati darajasini aniqlash uslubini ishlab chiqish asosida Qashqadaryo viloyati hududlarining biznes salohiyatining yuqori ($A=10$ ball), o‘rtta ($B=6$ ball) va past ($C=2$ ball) qiymatlarini aniqlash bo‘yicha viloyatga jalb qilinayotgan investitsiyalar samaradorligini oshirish, viloyatda infratuzilmani rivojlantirish, biznes vakillari raqobatbardoshligini oshirish, viloyatda biznes muhitini yaxshilash orqali biznesdagi risklarni kamaytirish hamda hududlarda ish o‘rinlarini yaratish va ishsizlikni kamaytirish yo‘nalishlari bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda KSZlarni rivojlantirish, raqobatbardosh va eksportbop mahsulot ishlab chiqarish ko‘p jihatdan kichik biznes subyektlari tomonidan

⁹ Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

foydalanilayotgan texnologiya, uskuna va malakali kadrlarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Quyidagi jadvalda Qashqadaryo viloyatidagi kichik sanoat zonalari to‘g‘risida ma’lumot berilgan (2-jadval).

2-jadval

Qashqadaryo viloyatidagi mavjud KSZ soni va yer maydoni to‘g‘risida ma’lumot (31.12.2024 yil)¹⁰

KSZ soni (ta)	Yer maydoni (ga)	Infratuzilmaga ajratilgan yer maydoni (ga)	Loyiha joylashtirish mumkin bo‘lgan foydali yer maydoni (ga)
44	140,22	43,04	97,18

Yuqoridagi jadvalda 2024-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatidagi KSZ soni 44 ta, yer maydoni 140,22 hektar, infratuzilmaga ajratilgan yer maydoni 43,04 hektar, loyiha joylashtirish mumkin bo‘lgan foydali yer maydoni 97,18 hektarni tashkil qilganligini ko‘rish mumkin.

KSZda loyihalarni joriy etish uchun tadbirkorlik subyektlarini olib kelish, tadbirkorlar bilan o‘zaro hamkorlikda ishlarni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, kichik sanoat zonasi hududida ishlab chiqarishlarni joylashtirish bo‘yicha investitsiya buyurtmanomalarini sifatli va o‘z vaqtida ko‘rib chiqish, KSZ hududida ishlab chiqarishlarni tashkil etish bo‘yicha investitsiya loyihalarining biznes-rejalarini ishlab chiqishda tadbirkorlik subyektlariga ko‘maklashish kabi vazifalar belgilangan.

Tadqiqot davomida biz tomonimizdan hududlarning qisqa (1 yilgacha), o‘rta (1 yildan 5 yilgacha) va uzoq (5 yildan 10 yilgacha) davrdagi investitsiya loyihalarini baholashning “hududlar foydalilik indeksi”ni ishlab chiqish orqali biznes faoliyati uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan imkoniyatlar bo‘yicha “yashil biznes” ustunlik mavqeini qo‘llash taklifimiz asoslangan.

Biz tadqiqotimiz davomida biznes yuritishda investitsiya loyihalarini baholashni uchta davrga bo‘lib, hududlar foydalilik indeksi ishlab chiqildi hamda biznes faoliyati uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan imkoniyatlar bo‘yicha “yashil biznes” ustunlik mavqeini qo‘llashni taklif qildik.

Hududlarning qisqa (1 yilgacha), o‘rta (1 yildan 5 yilgacha) va uzoq (5 yildan 10 yilgacha) davrdagi investitsiya loyihalarini baholashning “hududlar foydalilik indeksi”ni ishlab chiqish orqali biznes faoliyati uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan imkoniyatlar bo‘yicha “yashil biznes” ustunlik mavqeini qo‘llash orqali investitsiyalar jozibadorligining 13,5 foizga o‘sishini ta’milagan.

Har qanday hududda biznes jarayonlarining kelajakdagagi prognozlarini aniqlash, uning rivojlanishi uchun salbiy ta’sir etuvchi omillarga qarshi kurashib, ijobjiy omillarni ragbatlantirish mazkur hududda aholini daromadlarini oshiradi, kambag‘allikni qisqartiradi.

Qashqadaryo viloyatida biznes faoliyati uchun Qashqadaryo viloyati YaHM o‘sishi, Qashqadaryo viloyatida texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, Qahqadaryo viloyatida kichik biznes tomonidan eksport, Qashqadaryo

¹⁰ Qashqadaryo viloyat hokimligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

viloyatida asosiy kapitalga kiritilinadigan investitsiyalarning ta'sirini modellashtiriladi va ishonchligi baholanadi (3-jadval).

3-jadval

Qashqadaryo viloyati biznes muhitiga ta'sir etuvchi asosiy omillarning modellari¹¹

	Ko'rsatkichlar	1-model	2-model	3-model	4-model
1	Qashqadaryo viloyati YHM o'sishi	0.22 (L1, ln) (0002)			
2	Qashqadaryo viloyatida texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar		0.11 (L2, ln) (0000)		
3	Qahqadaryo viloyatida kichik biznes tomonidan eksport			0.25 (L1, ln) (0000)	
4	Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar				0.15 (L2, ln) (0000)
5	F - test	10.23 (0003)	12.41 (0000)	15.10 (0000)	12.85 (0000)
6	Determinatsiya	0.60	0.52	0.63	0.41

Tadqiqot davomida ko'rsatkichlar aralash statsionarlikka egaligi hamda o'zaro kointegratsion bog'lanishga ega ekanligi aniqlandi. Bunda agar bir omilli model bo'lsa bir omilli ARDL, ko'p omilli model bo'lsa ko'p omilli ARDL qo'llaniladi.

$$Y_t = \beta_{01} + \sum_1^l \beta_{1i} X_{1t-1} + \sum_0^m \beta_{2i} X_{2t-1} + \sum_1^l \beta_{3i} X_{3t-1} \quad (2)$$

ARDL modeli statsionar bo'limgan o'zgaruvchilar bilan ishlashda va kointegratsiya tahlillarini o'tkazishda ayniqsa qimmatlidir¹². An'anaviy regressiya modellari statsionar bo'limgan ma'lumotlar uchun mos emas, chunki ular ishtirok etadigan o'zgaruvchilar barqaror munosabatlarga ega, deb taxmin qilinadi.

Modelga ko'ra quyidagi natijalar olingan:

1. Qashqadaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulotning o'sishi biznes muhitiga ta'sir etuvchi eng kuchli omil hisonlanadi, YaHM bir birlikka ortishi bir yildan keyin biznes muhitini 0.22 birlik qo'shimcha yaxhilanishiga ta'sir etadi.
2. Qashqadaryo viloyatida texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar ham biznes faoliyati uchun muhimdir, mazkur omil belgining bir birlikka ortishi natijasida biznes faoliyatining yashovchaligi 0.11 birlikka ortadi.
3. Qahqadaryo viloyatida kichik biznes tomonidan eksport biznes faoliyatining fikrimizcha asosiy dvigateli ekanligi aniqlandi, biznes egalariga eksport qilish uchun qanchalik ko'p yordam berilsa yoki qo'llab-quvvatlansa, biznes faoliyati shunchalik rivojlanishi ilmiy asoslandi.

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹² Ghous, Ghulam, Saud Ahmed Khan, and Atiq Ur Rehman. "ARDL model as a remedy for spurious regression: problems, performance and prospectus." (2018): 1-29.

4. Albatta biznesni investitsiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar biznes faoliyatini yashovchanligini mustahkamlaydi, qo‘sishimcha 0.15 birlikka ortishini ta’minlaydi. Barcha modellarning ishonchli ekanligi tasdiqlandi va ahamiyatliligi tekshirildi, hamda ularning o‘zgarishi sharti asosida prognoz qiymatlar shakllantirildi.

4-jadval

Qashqadaryo viloyatida biznes faoliyatining 2025–2030-yillardagi prognoz qiymatlari¹³

Nº	Ko‘rsatkich	2025	2026	2027	2028	2029	2030
1	Biznes faoliyati	0.52	0.58	0.73	0.81	0.86	0.92

Yuqoridagi shartlar ya’ni tanlab olingen ko‘rsatkichlarning doimiy barqarorligi biznes faoliyatini mustahkamlaydi, yashovchanligini oshiradi, biznes yurituvchilar o‘rtasida raqobatni yaxshilaydi.

Qashqadaryo viloyatining 2025–2030-yillardagi biznes faoliyatiga oid prognozlar va rejalashtirilgan. Ushbu prognozlar va rejalashtirilgan chora-tadbirlar Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta turtki berishi kutilmoqda.

Dissertatsiyaning “**Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va boshqarishning asosiy yo‘nalishlari hamda istiqbollari**” deb nomlanuvchi uchinchi bobida hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish tamoyillari hamda mezonlari, hududlar biznes muhitini samarali boshqarishning konseptual asoslarini takomillashtirish yo‘nalishlari, hududlar biznes muhitini rivojlantirishda ishtirokchilar raqobatbardoshligini oshirish jarayonini strategik modellashtirish bilan bog‘liq muammolar keltirilgan va ularning yechimlari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Hududlar ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va mintaqada hayot sifatini yaxshilash uchun juda muhimdir. O‘zbekistonning janubida joylashgan Qashqadaryo viloyati o‘zining tabiiy boyliklari, sanoat bazasi va qishloq xo‘jaligi mahsulorligi bilan mashhur. Viloyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning biznes muhitini rivojlantirish va boshqarishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan asosiy tamoyillar va mezonlarni ko‘rish mumkin.

Hududlar biznes muhitini samarali boshqarishni o‘lchash mezonlari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy o‘sish va bandlik darjasи. Hududlar biznes muhitini samarali boshqarishni o‘lchash mezonlaridan biri sifatida iqtisodiy o‘sish va bandlik darjasи olindi. Sababi, samarali ishbilarmonlik muhiti iqtisodiy o‘sish va ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi. YaHMning o‘sishi, hududlarda ishsizlik darajasining kamayishiga va biznesni rivojlantirish ko‘rsatkichlar yaxshilanishiga olib keladi.

2. Investitsiyalarni jalb qilish. Hududlar biznes muhitini samarali boshqarishni investitsiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Mahalliy va xorijiy

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

investitsiyalarni jalg qilish imkoniyati sog‘lom biznes muhitining asosiy belgisidir. Buni hududga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi va ko‘lami bilan o‘lchash mumkin.

3. Biznes yuritishning qulayligi. Hudud biznes muhitini samarali boshqarishni o‘lchash mezoni sifatida biznes yuritishning qulayligi keltirildi. Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish vaqtлari, soliq tizimining soddaligi, biznes yuritishda tashqi aralashuv va tartibga soluvchi talablar kabi omillar bilan o‘lchanadi. Hududning biznes yuritish qulayligi biznes operatsiyalari uchun muhit qanchalik qulay ekanligini ko‘rsatadi.

4. Innovatsiyalar va raqobatbardoshlik. Hududlar biznes muhitini samarali boshqarishni o‘lchash mezonidan biri innovatsiyalar va raqobatbardoshlikdir. Hududlar biznes muhitini yaxshilash uchun kiritilgan innovatsiyalar, innovatsion mahsulotlar, patentlar soni, ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlar va biznes samaradorligi kabi ko‘rsatkichlar mintaqaning innovatsion salohiyati va raqobatbardoshligini o‘lchaydi.

5. Ijtimoiy rivojlanish va tenglik. Samarali boshqaruv ijtimoiy rivojlanishga, biznes yuritishda shaffoflikni ta’minlashga va tenglikka olib kelishi kerak. Kambag‘allik darajasi, ta’lim darajasi va daromadlar tengligi kabi ko‘rsatkichlar biznes rivojlanishining kengroq ta’sirini ko‘rsatib beradi.

6. Atrof-muhitning barqarorligi. Hududlar biznes muhitini samarali boshqarishni o‘lchash mezonlaridan yana biri atrof-muhitning barqarorligidir. So‘nggi yillarda dunyoda bo‘layotgan glabol o‘zgarishlar atrof-muhitga ham salbiy ta’sir qilmoqda. Shuning uchun ham tadbirkorlik faoliyatining atrof-muhitga ta’siri hal qiluvchi mezon hisoblanadi. Uglerod chiqindilari, energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish va chiqindilarni qayta ishlash amaliyoti kabi ko‘rsatkichlar hududlarda atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga yordam beradi.

7. Infratuzilma sifati. Hududlar biznes muhitini samarali boshqarishni o‘lchashda mavjud infratuzilma muhim ahamiyatga ega. Infratuzilma sifatini transport, energiya, suv va raqamli tarmoqlarning mavjudligi va ishonchliligi bilan baholash mumkin.

8. Boshqaruv va oshkorlik. Hududlar biznes muhitini samarali boshqarishni o‘lchash mezonidan yana biri biznes boshqaruvi va oshkorlikdir. Bugungi kunda dunyodagi ko‘plab davlatlar biznesda boshqaruv, shaffoflik va oshkorlikka katta e’tibor qaratmoqda. Boshqaruv samaradorligini korrupsiyanı idrok etish indekslari, davlat xaridlaridagi shaffoflik va davlat tashkilotlariga bo‘lgan ishonch kabi ko‘rsatkichlar bilan o‘lchash mumkin.

Ushbu xususiyatlarni inobatga olgan holda Qashqadaryo viloyatida biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarishning SWOT-tahlilini amalga oshirishni lozim topdik (5-jadval).

5-jadval

Qashqadaryo viloyatida biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarishning SWOT-tahlili¹⁴


¹⁴ Muallif ishlanmasi.

<p>S-kuchli jihatlar</p> <ol style="list-style-type: none"> Tabiiy resurslar. Viloyat minerallar, qurilish materiallari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va suv resurslariga boy Infrastrukturaviy rivojlanish. Viloyat markazida transport infratuzilmasi, gaz, energetika tarmog‘i, kanalizatsiya mavjud Oxirgi yillarda viloyatda biznes faoliyati yuzasidan loyihalar sonining, unda ishtirok etish xohishini bildirgan investorlar va ular kiritgan investitsiyalar hajmining keskin ortganligi Viloyatda mehnat yetarli darajada bo‘lib, bu hududda korxonalar uchun arzon va malakali ishchi kuchi mavjud 	<p>W-zaif jihatlar</p> <ol style="list-style-type: none"> Sanoat rivojining past darajasi. Qashqadaryo viloyatidagi sanoat sektori O‘zbekistonning boshqa hududlari bilan solishtirganda kam rivojlangan Malakali kadrlar yetishmasligi va qo‘nimsizligi. Ba’zi sohalarda malakali mutaxassislarining etishmasligi, ayniqsa, texnologiyalarni joriy etish va boshqaruvni modernizatsiya qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin Bozor raqobatining pastligi. Ba’zi sohalarda raqobat past, bu esa yangi bizneslar uchun chekloljar yaratishi mumkin Viloyat hududlari bo‘yicha resurslarning notekis taqsimoti
